



## USE OF ABDULLAH AVLONI'S WORKS IN EDUCATIONAL LESSONS

Yo'ldosheva Mohidil Sobirjon qizi <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Namangan State University, Faculty of Pedagogy and Psychology

Master of Theory and History of Pedagogy 1st stage

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4707111>

### ARTICLE INFO

Received: 15<sup>th</sup> April 2021

Accepted: 19<sup>th</sup> April 2021

Online: 21<sup>st</sup> April 2021

### KEY WORDS

education, upbringing, ethics, behavior, enlightenment, pedagogy, thought education, moral education, pedagogical skills.

### ABSTRACT

*This article discusses the use of the ideas of education in the works of Abdullah Avloni in the newly introduced "Education" lessons and its application in practice. Abdullah Avloni's writings focus on education and morality.*

## TARBIYA DARSLARIDA ABDULLA AVLONIY ASARLARIDAN FOYDALANISH

Yo'ldosheva Mohidil Sobirjon qizi <sup>1</sup>

<sup>1</sup> Namangan davlat universiteti Pedagogika- Psixologiya fakulteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-bosqich magistranti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-aprel 2021

Ma'qullandi: 19-aprel 2021

Chop etildi: 21-aprel 2021

### KALIT SO'ZLAR

ta'lim, tarbiya, axloq, xulq-atvor, ma'rifat, pedagogika, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi, pedagogik mahorat

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada yangi joriy etilgan "Tarbiya" darslarida Abdulla Avloniy asarlaridagi tarbiyaga oid fikrlardan foydalanish va uni amaliyotga tadbiq qilish to'g'risida fikr mulohazalar yoritilgan. Abdulla Avloniy yozgan asarlarida tarbiya va odob- axloq masalasini alohida e'tibor berilgan.*

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni xamda Kadrlar Tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim soxasida tubdan islohotlar amalga oshirildi. Ta'lim mazmuni yangilandi, yangi ishlab chiqilgan davlat ta'lim standarti, o'quv

dasturlari asosida esa zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan darsliklar yaratildi. Vazirlar Mahkamasi 2020-yil 6-iyuldagi "O'rta umumta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarorni qabul qilingani



esa ta'lim sohasidagi eng katta islohotlardan biri bo'ldi.

Mazkur darslik maktablarda avval o'qitilgan "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan Tuyg'usi" kabi fanlar asosida yagona fan sifatida yaratildi. 2020-2021 o'quv yilida 1-9- sinflarda o'qitish yo'lga qo'yildi. 10-11-sinflarda esa mazkur fan 2021-2022 o'quv yilidan boshlab joriy etilishi aytiladi.

Mazkur darslikda yoshlarni fikrlashga o'rgatadigan, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, ma'suliyatlilik, bag'rikenlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlashga o'rgatish, mehnatsevarlik kabi ko'nikmalar shakllantirish asosiy maqsad qilib olingan. Milliy an'analarimiz, ulug' allomalarimiz ijodidan na'munalar keltirilgan.

Tarbiya darslarining muqovasiga Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi fikri keltirilgani ham bejiz emas. Tarbiya biz uchun qay darajada kerakli ekani to'liq yoritib berilgan.

" Tarbiya biz uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halohat, yo saodat-yo falokat masalasidir "

Taniqli ma'rifatparvar adib Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'alarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog, olimdir.

«Turkiy guliston yoxud axloq» asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni «yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi» bir ilm- axloq haqida fikr yuritiladi.

Abdulla Avloniy farzand tarbiyasi haqida fikr yuritib «Agar bir kishi yoshligida nafsi buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo'l

uzatmak kabitur», - deydi. Uning fikricha, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga ega.

O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga «Pedagogika», ya'ni bola tarbiyasining fanidir», deb ta'rif berdi. Tabiiy bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi.

Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi: 1. «Tarbiyaning zamoni». 2. «Badan tarbiyasi». 3. «Fikr tarbiyasi». 4.«Axloq tarbiyasi» haqida hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritadi. «Tarbiyaning zamoni» bo'limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani: ota-ona, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta'kidlaydi.

Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq, deb hisoblaydi adib Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrning oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan - uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilishi lozimligini uqtiradi.

Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir».

Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda ota- onalarga murojaat qilsa, bolani fikr



tomondan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor beradi.

«Turkiy guliston yoxud axloq» kitobi ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'ib qiladi. Abdulla Avloniy kitobda ilm to'g'risida bunday deydi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddat bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkur qilmoq, ... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabi dur...». Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, «Bizlarni jaholat, qorong'ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... Alhosil butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidir».

U ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u, yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi. Uning fikricha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmas xalq farovonligi yo'lida qo'llanmasa, u o'likdir. A.Avloniy o'z ilmini amalda qo'llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni dono insonlar, deb ataydi.

Abdulla Avloniy o'tmish mutafakkirlari kabi yoshlarni foydali kasb-hunar egallashga chaqiradi. Adib boylik ketidan quvuvchilarni,

ularning odamgarchilikka to'g'ri kelmaydigan ishlar bilan shug'ullanayotganini ko'rib, ulardan nafratlanadi. Avloniy yoshlarni boylikka ruju qo'ymaslikka undaydi. Boylikni o'tkinchi bulutga o'xshatadi.

Abdulla Avloniy o'z asarida sabr, toqat, sabot va matonat masalalariga to'xtalib, «Har bir ishda sabr ila harakat qilmoq lozimdur. Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdir, maqsadga yetish yo'lidir. Nafsi sabr ila rom qilgan kishi xar ishda oshiqmay, oxista harakat qilur. Nafsin halokatdan, g'ururdan saqlar. Sabr shunday bir kuchli narsadurki, tavoz'uga, yomonlikni yaxshilikka aylandurmoqqa quvvati yetar... Sabr shodlig'ning kalitidir...».

«Turkiy guliston yoxud axloq»ning birinchi sahifasidan to so'ngi sahifasigacha Avloniyning insonparvarlik g'oyalari ifodalangan. U hammadan burun xalq manfaatini ko'zlaydi, xalqqa bajonu dil hizmat qilishni o'zining muqaddas burchi deb biladi. Uning nazarida kishilar g'amini yemagan, xalqdan uzoq turgan ig'vogar, g'iybatchi inson emas.

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib hizmat qiladi. Shu ma'noda Avloniyning siymosi, faoliyati biz uchun qadrlidi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asqar Zunnunov. «Pedagogika nazariyasi». Toshkent «Aloqachi»-2006.
2. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. «Sano –standart» nashriyoti Toshkent -2007.
3. Vazirlar Mahkamasi 06.07.2020 yildagi «Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida «Tarbiya» fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi [422](#)-son qarori.
4. Abdulla Avloniy. „Tanlangan asarlar“ 1- jild Toshkent «Manaviyat» 2006.
5. Abdulla Avloniy. „Tanlangan asarlar“ 2- jild Toshkent «Manaviyat» 2009.